

**Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Farg'ona filiali**

**“MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYANING
ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLARI”
MODULI**

**1 - Mavzu: Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil
etishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar
tushunchasi va turlari**

O'qituvchi: Tishabayeva Irodaxon Rasulovna



Reja:



1.1 Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda huquqiy-me'yoriy hujjatlar tushunchasi.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etivchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning asosi.

1.3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati.



Har qanday jamiyatda uning a'zolari munosabatlarini tartibga solish jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Ijtimoiy hayotda tartibga solish – odamlar va ular jamoalari xatti-harakatlarini belgilash, ushbu xatti-harakatlarning doimiyliigi va rivoji uchun zarur yo‘nalishlar berish, uni aniq maqsadni ko‘zlagan holda muayyan bir qolipga tushirish demakdir. Ijtimoiy tartibga solish ikki xil – normativ va individual ko‘rinishga ega. Normativ tartibga solish umumiy xususiyatga ega bo‘lib, bunda norma (qoida)lar jamiyatning barcha a'zolariga yoxud uning muayyan qismiga tegishli bo‘ladi.

«NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TO‘G‘RISIDA»GI 682-SONLI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Qonunning yangi tahriri 8 bob va 60 moddadan iborat (avvalgi tahririda – 7 bob va 44 modda bo‘lgan). Shuningdek qonunga ilova tariqasida, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning yagona uslubiyoti qabul qilindi.



Me'yoriy-huquqiy hujjat - bu normativ huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir



Normativ huquqiy hujjatlarning turlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI – TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETIVCHI HUQUQIY-ME‘YORIY HUJJATLARNING ASOSI.

«**Konstitutsiya**» so‘zi lotincha «constitytio» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘rnatish, joriy etish ma‘nosini bildiradi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

Dunyodagi ilk Konstitutsiya
-1787 yildagi AQSHning
Konstitutsiyasi bo'lib, u shu
kungacha amal qilib
kelmoqda.





O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan.

Shu kundan e‘tiboran, 8-dekabr – umumxalq bayrami deb e‘lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining tuzilishi

Muqaddima

6-bo'lim

26-bob

128-modda



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bo'limlari

Birinchi bo'lim.
Asosiy
prinsiplar

Ikkinchi bo'lim.
Inson va
fuqarolarning
asosiy
huquqlari,
erkinliklari
va
burchlari

Uchinchi bo'lim.
Jamiyat va
shaxs

**To'rtinchi
bo'lim.**
Ma'muriy-
hududiy
va davlat
tuzilishi


**Beshinchi
bo'lim.**
Davlat
hokimiyatining
tashkil etilishi

Oltinchi bo'lim.
Konstitutsiyaga
o'zgartirish
kiritish
tartibi



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasi

**Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir.
Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.**



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi

**Har kim bilim olish huquqiga ega.
Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.
Maktab ishlari davlat nazoratidadir.**



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasi

**Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va
yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.**



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati.

Qonun-O‘zbekiston Respublikasida eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadigan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ hujjat.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni

1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida 5 bo‘lim va 34 moddadan iborat «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

2020-yil 19-mayda 637-son bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 11 bo‘lim va 74 moddadan iborat «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi va 24 sentyabrdan kuchga kirdi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TURLARI

2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari

7-modda. Ta’lim turlari

Maktabgacha ta’lim va tarbiya;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

Professional ta’lim;

Oliy ta’lim;

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

Maktabdan tashqari ta’lim.



*E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!*